

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

NIKOHDAN AJRALISHGA SABAB BO'LUVCHI IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLAR

Xodjaeva G.A.,

Qoraqalpoq davlat universiteti professori
v.b., g.f.n.

Bayramova M.D.,

Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs
magistranti

Qalmuratov R.

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Ajralish muammosi zamonaviy oiladagi munosabatlar turining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq: yangi oilaviy modellar bu munosabatlarni buzishning o'ziga xos shakllarini keltirib chiqaradi. Agar an'anaviy nikohda ajrashish er -xotinning hayotini qayta tashkil etishni talab qiladigan huquqiy, iqtisodiy va psixologik nuqtai nazardan munosabatlarning uzilishi deb tushunilsa, oilaviy munosabatlarning zamonaviy shakllari shuni ko'rsatadiki, ular tugaganidan keyin psixologik jihatlar ajralishning oqibatlari nafaqat saqlanib qolmaydi, balki birinchi rejaga o'tadi.

Oilaviy ajralishning kelib chiqish sabablari va omillarini aniqlash quyidagi savollarga javob berishni taqozo etadi:

- oilaviy ajralishning iqtisodiy va demografik qonuniyatları mavjudmi; oilaviy ajralishlarning jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari bilan bog'liqligi bormi;
- oilalar hayotining qaysi (farzandsiz yoki farzandli) bosqichida oilaviy ajralish sodir bo'ladi;
- iqtisodiy omillar oilalarning ajralish darajasiga ta'sir qilishi mumkinmi;
- kimning tashabbusi bilan ajralish sodir bo'ladi,
- bozor iqtisodiyoti oilalarning ajralishiga qanday ta'sir qiladi va boshqalar [4, 35].

Taniqli rus sotsiologi N.M.Rimashevskayaning fikricha, ajralish muammosi va oilaning taqdiri jamiyat hayotidagi burilish nuqtasida o'ta jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda bir vaqtning o'zida nikohlarning kamayishi bilan ajralishlar soni oshib bormoqda va qonuniy bo'limgan tug'ilishlar to'liq bo'limgan oilalar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Demograflarning hisob - kitoblariga ko'ra, erkaklar va ayollarning qariyb yarmi umr bo'yi nikohni buzishadi:o'rtacha har besh ro'yxatdan o'tgan


"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

nikohdan ikkitasi buziladi. Ajralishlarning 30% dan ko'prog'i 5 yildan kam bo'lган yosh oilalarda sodir bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida 2022-yil yanvar-dekabr oylarida nikohdan ajralishlar soni 48,7 ming birlikni tashkil etib, so'ngi 5 yilda sezirarli ko'payganligini, ya'ni 2018 yilga nisbatan 16,4 mingtaga, 2020 yilga nisbatan 20,5 mingtaga ko'payganligi kuzatildi.


O'zbekistonda ajralishlarning yillar bo'yicha taqsimlanishi



O'zbekistonda ajralish jarayoni to'g'risidagi batafsilroq statistik ma'lumotlar 1940 yildan boshlab mavjuddir. Ushbu ma'lumotlar guvohlik berishicha o'lkada oilalarning buzilish xollari Rossiya, Ukraina, Boltiqbo'yi kabi davlatlarga qaraganda 3 - 4 barobar kam uchraydi. Masalan, 1995 yili O'zbekistonda ajralishning umumiyo koeffitsienti, ya'ni har 1000 kishi xisobiga ajralganlar soni 0,9 ni tashkil etgan bo'lsa, Rossiyada bu ko'rsatkich 4,5 ni tashkil etgan [1, 47].

O'zbekistonda eng past ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxandaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlariga to'g'ri keladi. Bulardag'i ajralishlar koeffitsentining past bo'lishiga asosan tuzilgan nikohlarning barchasining ham FHDY bo'limlaridan qayd qilinmaganligi bilan ham izohlash mumkin.

Qoraqalpog`iston Respublikasida ajralishlarning yillar bo'yicha taqsimlanishi



"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Ajralishning umumiy koeffitsienti tadqiqot ob'ekti bolg'an Qoraqalpog'iston Respublikasida umumrespublika ko'rsatkichlaridan burmuncha kam ekanligini ko'ramiz. Lekin so'ngi 2 yil (2020-2022 yy.) ichida bu ko'rsatkich 2 boraborga oshgan. Shungdek ajralganlar miqdori qishloqlarga nisbatan shahar aholisi orasida 2-3 barobarga ortiq ekanligini ko'rish mumkin.

Ajralish jarayonidagi omillar orasida asosiy o'rın demografik va ijtimoiy - iqtisodiy determinantlarga tegishli. Masalan, bu jarayonda er - xotinlarning yoshi katta rol o'ynaydi.

Mazkur demografik o'zgaruvchanlik uch xil turli modifikatsiyada namoyon bo'ladi: nikohga kirish yoshi, ajralish davridagi yoshi, ayol va erkak yoshi orasidagi farq.

Birinchisi, ya'ni nikohga kirish yoshiga kelsak, tadqiqotlardan aniq bo'ladiki, mazkur o'zgaruvchidan bo'ladigan ajrimlar ehtimoli quyidagicha: dastlab u yosh nikohlardagi pasayib keladi, so'ng yana kattaroq yoshda tuzilgan nikohlarda ko'tariladi. Ajralishning eng kam ehtimoli maksimal nikohlilik yoshida tuzilgan nikohlarda mavjud. Ajralish davridagi yosh haqida so'z yuritsak, ajralish 20 - 30 yoshlar orasida maksimal ko'rsatkichga ega, so'ng asta - sekin kamayib 50 yoshdan katta yoshdagilar orasida eng past darajaga etadi. Bunda ayollarda ajralishning maksimal yoshi ehtimoli erkaklarnikidan pastroq [3, 36]. Er va xotin yoshi orasidagi katta farq ajralish ehtimolini oshiradi, bunda ayniqsa, xotin erdan kattaroq bo'lsa, ajrimlar ko'proq uchraydi.

Ajralishning muhim omili, bu ajralayotgan er - xotinlarning farzandlari soni. Demografik statistika ma'lumotlariga qaraganda, ajralishlar farzandsiz va bir bolali oilalarga nisbatan yuqoriroq. V.A. Borisov va A.B. Sinelnikovlarning baho berishlariga ko'ra, 1988 - 1989 va 1993 - 1994 - yillarda har ming oilaga hisoblaganda ajralish koeffitsientlari mos ravishda quyidagilarga teng bo'lган: barcha oilalarda 16,8 va 17,3 %, bir bolali oilalarda - 27,5 va 30,4 %, ikki va undan ko'p bolali oilalarda - 38 va 14,3 %. Biroq keltirilgan dalillar boshqa hususiyatni ham ko'rsatmoqda: farzandlar sonining ajralish omili sifatidagi roli kamayib bormoqda [3, 53].

Ajralishni taqiqlash va unga rasmiy ravishda xalaqit qilish emas, balki ajralishlarning oldini olish, unga olib keladigan sabablar va omillarni bartaraf etishdir. Ajralishlarning o`ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy hususiyatlari mavjuddir. Bu xususiyatlar oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablar, ularning amalga oshish jarayoni, oqibatlari, ajralishgacha va undan keying davrlardagi er-xotinlarning holati kabilarda ifodalanadi. Shunday xususiyatlardan biri ajralish niyatini bildirib rasmiy tashkilotlarga murojaat qiluvchi ajralish tashabbuskori

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

kim ekanligida namoyon bo`ladi. Sharq oilalarida, ayniqsa o`zbek va qishloq oilalarida ajralish tashabbuskori ko`proq erkaklar bo`ladilar va aksincha, Yevropa xalqlari oilalarida, yosh oilalarda va urbanizatsiyalashuv darajasi yuqori bo`lgan shahar oilalarida ajralish tashabbuskori ko`proq ayollar bo`ladi.

O`zbekistonda kuzatilayotgan ajralishlarning asosiy sabablari quyidagi obyektiv omillarga bog`liq bo`lishi mumkin:

-birinchidan, qishloq joylarda ajrashgan ayol erkakka nisbatan jamoatchilik tomonidan ko`proq tanqidiy muhokama qilinadi.

-ikkinchidan, qishloq joylarda ajralishgandan so`ng ayollarning moddiy holati erkaklarga nisbatan yomonlashadi, o`zbek millatidagi o`ziga xos urfdotlar o`zbek ayolining uy-joylarni eriga qoldirib, o`z ota-onasini kiga (uning aka-ukalari o`z oilasi, xotini, bolalari bilan yashayotgan va ajrashgan ayol uchun ahvolni yanada jiddiy lashtiruvchi joyga) borib yashashga majbur bo`ladilar.

-uchinchidan, qishloq ayollarida ajralishgandan so`ng qayta oila qurish imkonini nihoyatda kamdir. Mana shu obyektiv sabablarni hisobga olgan holda qishloq joylardagi o`zbek ayollari muammoli (er-xotin orasidagi munosabatlarni nihoyatda ziddiyatli, nizoli, ular orasidagi mehr-oqibat yetarli ifodalanmagan oila) nikohga ham ko`nikib yashayveradilar. Ba`zi ayollar, aslida eri bilan birga yashamayotgan bo`lsalarda (hatto yillab), erlaridan «o`ch olish» maqsadida, uning boshqaga uylanishiga yo`l qo`ymaslik uchun rasmiy ravishda, sud orqali ajrashishga ko`nmaydilar [3, 45].

Nikoh yoshining ko`tarilib borishi, oilada farzandlar sonining kamayishi, oila mustahkamligi mustahkamlovchi nikohga bo`lgan munosabatlarning o`zgarganligi, nikohga evropacha qarashlar ham ajralish jarayoninin ham jaddallahishiga olib keldi. Shu bois, oilada sog`lom ma`naviy muhit, oila a`zolarida o`zaro hurmat-ehtirom ruhini yaratish, axloqiy va ma`naviy qadriyatlarimizni saqlab qolish, kelajak avlodlarimiz ongiga sog`lom turmush tarzini singdirish asosiy vazifamiz bo`lishi lozim.

Adabiyotlar

- Embergenov N.J., Khodjaeva G.A., Allanazarov K.J. Population Growth in Republic of Karakalpakstan// Наука и образования в Каракалпакстане. Научный журнал. №2, 2017. 35-38 стр.
- Genjekhan, Utepova Baltabaevna, et al. "HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC FEATURES OF THE UZBEK FAMILY IN THE MIDDLE AGES."
- Utepova G.B. Xalıqtanıw hám ekonomikalıq geografiya tiykarları. Oqıw qollanba N: 2022.
- Xodjaeva G.A., Dauletbaeva D.D. QORAQALPOG ‘İSTON RESPUBLIKASI SHAHAR AHOLISINING O ‘SISH DINAMIKASI.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilmiy-teoriyalıq konferenciya

"Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent, 15-16 aprel, 2022. 364-368 b.

5. Борисов В.А., Синельников А.Б., Архангельский В.А. и др. Население мира. Демографический справочник. М. 1989.
6. Волков А.Г. Семья-объект демографии. – Москва: Мысль, 1986. – С.106.
7. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
8. Ходжаева Г.А., Бекбулатова Г.А., Байрамова М.Д. Влияние демографического фактора на территориальную организацию производства в сельских районах Республики Каракалпакстан. Промышленный транспорт Казахстана. №70 (1), 2021. –с. 190-199.
9. Ходжаева Г.А., Умаров Е.К., Алланазаров К.Ж. Демографические факторы территориальной организации производства в районах Южного Приаралья.// Актуальные проблемы современной науки, N 4, - М., 2003. с. 151-153